

**TASDIQLAYMAN**  
**“O‘zog‘irsanoatloyiha instituti” AJ**  
**Bosh direktori**



**“O‘zog‘irsanoatloyiha instituti” AJ tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI”**

<b>T/r</b>	<b>Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari</b>	<b>Muddat</b>	<b>Mas‘ul ijrochilar</b>
1.	Raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish	Tizimli ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish. “O‘zog‘irsanoatloyiha instituti” AJda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish.	Doimiy  Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha vakolatli shaxs  Kadrlar bo‘limi
2.	“O‘zog‘irsanoatloyiha instituti” AJ xodimlari orasida “Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish” mavzusida seminarlar va muloqotlar o‘tkazish	“O‘zog‘irsanoatloyiha instituti” AJ xodimlari orasida raqobat qonunchiligi va uning buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar to‘g‘risida seminar o‘tkazish va o‘tkazilgan tadbirlarni “O‘zog‘irsanoatloyiha instituti” AJ sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali doimiy yoritib borish. Faoliyat davomida xodimlarga muntazam	Bir yilda ikki marotaba	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha vakolatli shaxs  Yuriskonsult  SMM-menejer


T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		ravishda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berib borish.	Doimiy	
3	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilish ehtimolligini baholash aniqlash va	<p>Oxirgi 3-yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o'rganish.</p> <p>“O'zog'irsanoatloyiha instituti” AJ o'z ustun mavqeini suiiste'mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan holatlarni o'rganish.</p> <p>O'tkazilgan o'rganishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida taqsimlash hamda bu yuzasidan monopoliyaga qarshi organga axborot kiritish.</p>	<p>Har yili dekabr oyiga qadar</p> <p>Har chorakda</p> <p>Har chorakda</p>	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo'yicha vakolatli shaxs</p> <p>Moliya-iqtisod bo'limi</p> <p>Yuriskonsult</p>
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularning oldini olish	<p>Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqish.</p> <p>O'zog'irsanoatloyiha instituti” AJ tomonidan chiqariladigan hujjatlar (buyruq, yig'ilish bayonlari va boshqalar) loyihalarini doimiy o'rganib borish. Bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin</p>	Doimiy	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo'yicha vakolatli shaxs</p> <p>Texnik bo'lim</p> <p>Moliya-iqtisod bo'limi</p> <p>Yuriskonsult</p>

T/ r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		<p>bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda Bosh direktorni xabardor qilish.</p> <p>Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJ tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o'tkazilishida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.</p> <p>O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJ va boshqa yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarni o'rganib borish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining;</li> <li>- ayrim xo'jalik yurituvchi subektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining;</li> <li>- til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.</li> </ul> <p>Iqtisodiy konsentratsiyaga oid tuziladigan bitimlarni nazorat qilish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'shib</li> </ul>		

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		<p>yuborish va qo'shib olishga doir bitimlar tuzilishida;</p> <p>- "O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJning ustav fondidagi aksiyalarni olishga doir bitimlar tuzilishida monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi olinishini nazorat qilib borish.</p> <p>"O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJ ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etishda (qayta tashkil etishda) monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi olinishini nazorat qilib borish.</p> <p>Insofsiz raqobat holatlariga yo'l qo'ymaslik.</p> <p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish xavfi yuqori bo'lgan "O'zog'irsanoatloyiha instituti" AJning tarkibiy bo'linmalarini nazorat qilib borish.</p>		
5	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash</p>	<p>1. Monopoliyaga qarshi komplaens bo'yicha hisobot tayyorlash:</p> <p>raqobat to'g'risidagi qonun buzilishi xavfini baholash natijalari to'g'risida;</p> <p>raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to'g'risida;</p> <p>monopoliyaga qarshi komplaensning asosiy ko'rsatkichlariga erishish to'g'risida;</p> <p>monopoliyaga qarshi komplaens faoliyatining samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash to'g'risida.</p>	<p>Har yili 15-dekabrga qadar</p>	<p>Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo'yicha vakolatli shaxs</p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		2. Monopoliyaga qarshi komplaens to'g'risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va monopoliyaga qarshi organga yuborish.	Har yili 25-dekabrga qadar	SMM-menejer
6	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashinuvini amalga oshirish	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy veb-sayt orqali yangi loyiha va takliflar bo'yicha axborot almashish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo'yicha vakolatli shaxs
7	Keyingi yilga mo'ljallangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xarita" sini tasdiqlash	Bir yilga mo'ljallangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xarita" sini monopoliyaga qarshi organ bilan kelishgan holda ishlab chiqib tasdiqlash.	Har yili 25-dekabrga qadar	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo'yicha vakolatli shaxs

Moliyaviy-iqtisodiy masalalar  
boy'icha maslahatchi



L.Sharapov